



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№7(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 146 sahifa,  
1-iyul, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari .....	102
<b>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadrriddinovich</b>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili .....	110
<b>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari .....	115
<b>Go'zal Qurbonova</b>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<b>Muratova Munavvar O'rol qizi</b>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<b>Usmonova Zamira Jaxongirovna</b>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi .....	130
<b>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</b>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<b>Panayeva Maloxat Muminovna</b>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей .....	136
<b>Багдасарова Диана Левоновна</b>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся .....	141
<b>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</b>	



# BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (HAYKALTAROSHLIK SAN'ATI MISOLIDA)

Panayeva Maloxat Muminovna

Urganch davlat pedagogika instituti  
"san'atshunoslik" kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda haykaltaroshlik san'atining o'rni yoritilgan. Milliy haykaltaroshlik san'ati namunalarini jahon tajribasi, xususan, Qadimgi Yunoniston va Italiya haykaltaroshlik maktablari bilan qiyoslash orqali talabalarning badiiy tafakkuri, estetik didi hamda kasbiy mahoratini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, haykaltaroshlikni o'qitishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanishning ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetensiya, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, milliy meros, jahon san'ati, metodika, estetik tarbiya.

**Abstract:** This article examines the role of sculpture art in developing the professional competence of future fine arts teachers. Through a comparative analysis of examples of Uzbekistan's national sculptural heritage and world experience, particularly the sculptural traditions of Ancient Greece and Italy, the study explores approaches to enhancing students' artistic thinking, aesthetic taste, and professional competence. In addition, the article highlights the importance of applying modern pedagogical methods in the teaching of sculpture.

**Key words:** professional competence, fine arts, sculpture, national heritage, world art, teaching methodology, aesthetic education.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается роль искусства скульптуры в развитии профессиональной компетентности будущих учителей изобразительного искусства. На основе сравнительного анализа образцов национального скульптурного искусства с мировым опытом, в частности со скульптурными школами Древней Греции и Италии, рассматриваются вопросы развития художественного мышления, эстетического вкуса и профессионального мастерства студентов. Кроме того, показана значимость использования современных педагогических методов в процессе преподавания скульптуры.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, изобразительное искусство, скульптура, национальное наследие, мировое искусство, методика, эстетическое воспитание.

## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagoglardan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyani talab etmoqda. Ayniqsa, tasviriy san'at o'qituvchisi nafaqat amaliy ko'nikmalarga, balki milliy va jahon san'ati tarixini puxta bilishga hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash kompetensiyasiga ham ega bo'lishi zarur. Shu jihatdan bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda haykaltaroshlik san'ati muhim o'rin tutadi [2].

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida tasviriy san'at ta'limi mazmunini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash, estetik did hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan haykaltaroshlik san'ati talabalarda fazoviy tafakkur, badiiy kuzatuvchanlik, kompozitsion fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Haykaltaroshlik insoniyatning eng qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, unda xalqning tarixi, madaniyati, dunyoqarashi va estetik qarashlari mujassam bo'ladi [1, 5]. Haykaltaroshlik san'ati moddiy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti, mafkurasi va estetik qarashlarining tarixiy rivojlanishini aks ettiradi. Shu bois mazkur san'at turini o'rganish bo'lajak pedagoglarning san'atshunoslik bilimlarini yanada boyitadi.

Haykaltaroshlik san'ati qadim zamonlardan boshlab turli xalqlarning madaniy hayotida muhim o'rin egallab kelgan. O'zbekiston hududidan topilgan qadimiy haykallar va haykalchalar ajdodlarimizning yuksak badiiy tafakkurga ega bo'lganidan dalolat beradi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi tarixiy shaxslar siyosiga bag'ishlangan monumentlar milliy o'zlikni anglash va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda [3, 4].

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy haykaltaroshlik san'atida tarixiy shaxslar, milliy qahramonlar va xalqning ma'naviy qadriyatlarini asosiy mavzu hisoblanadi. Haykallar orqali tarixiy voqealar, xalqning urf-odatlarini va madaniy merosi badiiy jihatdan ifodalanadi. Shu sababli bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari ushbu merosni chuqur o'rganishlari va uni o'quvchilarga zamonaviy metodlar asosida yetkazishlari muhimdir. Jahon haykaltaroshlik san'ati rivojida Qadimgi Yunoniston alohida o'rin egallaydi. Yunon haykaltaroshlari inson tanasining tuzilishini mukammal o'rganib, go'zallik va mutanosiblikni san'atning asosiy mezon sifatida e'tirof etganlar. Ular yaratgan haykallarda insonning jismoniy barkamolligi, harakat dinamikasi va estetik mukammalligi yuksak darajada ifodalangan.

Italiya haykaltaroshligi, ayniqsa, Uyg'onish davrida antik an'analarni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu davrda yaratilgan asarlarda insonning nafaqat tashqi qiyofasi, balki ichki ruhiy holati ham chuqur aks ettirildi [5]. Marmar va bronzadan ishlangan haykallar bugungi kunda ham jahon san'atining eng yuksak namunalari biri sifatida e'tirof etiladi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston, Qadimgi Yunoniston va Italiya haykaltaroshlik maktablarini qiyoslaganda ularning umumiy hamda o'ziga xos jihatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Uchala maktabda ham inson obrazi badiiy ifodaning asosiy markazi hisoblanadi. Biroq har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati va estetik qarashlari haykaltaroshlik asarlarining mazmuni hamda uslubida o'z aksini topgan. Qadimgi Yunoniston haykaltaroshligida inson tanasining ideal proporsiyalari, anatomik mukammalligi va jismoniy go'zalligi asosiy mezon bo'lsa, Italiya Uyg'onish davri haykaltaroshligida insonning ruhiy olami, hissiy kechinmalari hamda realizm tamoyillari ustuvor o'rin egallaydi. O'zbekiston haykaltaroshligida esa tarixiy xotira, milliy qadriyatlar, ajdodlar merosi va ma'naviy g'oyalarni badiiy obrazlar orqali ifodalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan qiyosiy tahlil bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida san'at asarlarini ilmiy va estetik nuqtai nazardan baholash hamda tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantiradi. Bundan tashqari, qiyosiy tahlil talabalarida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Turli xalqlarning badiiy merosini qiyoslash orqali ular san'atning umuminsoniy va milliy xususiyatlarini chuqur anglaydilar hamda zamonaviy ta'lim jarayonida ushbu bilimlardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

### TAHLIL VA NATIJALAR



1-rasm: Jaloliddin Manguberdi haykali

Haykaltaroshlik san'ati o'zining badiiy vazifasi va bajarilish usullariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Mazkur turlarni o'rganish bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi, ularda badiiy tafakkur, fazoviy tasavvur hamda turli materiallar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Monumental haykaltaroshlik yirik hajmli asarlardan iborat bo'lib, tarixiy shaxslar, milliy qahramonlar va muhim voqealarni abadiylashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy shaxslar sharafiga bunyod etilgan monumentlar yosh avlodni vatanparvarlik va milliy g'urur ruhida tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Italiya va Qadimgi Yunonistonda ham monumental haykaltaroshlik davlat qudrati, diniy va madaniy qadriyatlarni ifodalashda muhim o'rin tutgan (1-rasm).

Dastgoh haykaltaroshligi nisbatan kichik hajmdagi mustaqil badiiy asarlar bo'lib, ko'rgazmalar, muzeylar va ta'lim jarayonida keng qo'llaniladi. Ushbu tur talabalar uchun plastik shakl, kompozitsiya, proporsiya va hajmni his etish ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchilar dastgoh haykaltaroshligi orqali loy, gips va plastilin kabi



materiallar bilan ishlashni, inson boshi, figurasi hamda naturani tasvirlash usullarini o'zlashtiradilar. Shuningdek, mazkur mashg'ulotlar davomida talabalar shakl va hajmi tahlil qilish, kompozitsion yechimlarni tanlash hamda mustaqil ijodiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Relyef haykaltaroshligi me'moriy inshootlarning ajralmas qismi bo'lib, unda tasvir tekis yuzada qisman bo'rtib ishlanadi. O'zbekistonning qadimiy me'moriy yodgorliklari, jumladan, saroy va maqbaralardagi ganch o'ymakorligi hamda bezak elementlari relyef san'atining milliy an'alarini namoyon etadi. Qadimgi Yunoniston va Italiya ibodatxonalarida fasadlaridagi relyef kompozitsiyalari esa mifologik va tarixiy voqealarni tasvirlash orqali san'at hamda me'morchilikning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Dekorativ haykaltaroshlik esa bog'lar, parklar, maydonlar, favvoralar va jamoat binolarini bezashga xizmat qiladi. Ushbu tur estetik muhitni shakllantirish bilan birga insonlarda go'zallikni his etish va atrof-muhitni badiiy idrok qilish madaniyatini rivojlantiradi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari dekorativ haykaltaroshlikni o'rganish orqali san'atning amaliy hamda estetik funksiyalarini anglaydilar. Natijada ularda atrof-muhitni estetik loyihalash, dizayn tafakkuri hamda badiiy muhit yaratish bo'yicha kasbiy kompetensiyalar shakllanadi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy faoliyat ham muhim o'rin egallaydi.

Talabalar haykaltaroshlik tarixini o'rganish, turli materiallar – loy, gips, yog'och, tosh va metall bilan ishlash texnologiyalarini egallash hamda kompozitsiya va proporsiya qonuniyatlarini amaliy mashg'ulotlarda qo'llash orqali kasbiy mahoratini oshiradilar. Shuningdek, monumental va dastgoh haykallarini yaratish, relyef kompozitsiyalarini ishlash hamda dekorativ shakllarni loyihalash bo'yicha ijodiy topshiriqlar ularning badiiy tafakkuri va ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, loyiha asosida ishlash, guruhij ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlarni hal etishga yo'naltirilgan metodlar hamda portfolio yuritish texnologiyalari talabalarning mustaqil fikrlashi va kasbiy refleksiya rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda muzey pedagogikasi ham muhim o'rin tutadi. Talabalarning muzeylar, tarixiy obidalar, haykaltaroshlik ustaxonalari va ko'rgazmalarga tashrif buyurishi ularda san'at asarlarini bevosita kuzatish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, loyiha asosida o'qitish, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual muzeylar hamda 3D modellashtirish dasturlaridan foydalanish talabalarning ijodiy fikrlashi, mustaqil izlanishi va innovatsion yondashuvlarini rivojlantiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar, jumladan, virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), 3D model-lashtirish va 3D printerlardan foydalanish haykaltaroshlik ta'limini yanada interfaol tashkil etish imkonini beradi. Ushbu vositalar orqali talabalar murakkab badiiy shakllarni virtual muhitda tahlil qilish va mualliflik loyihalarini yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari milliy haykaltaroshlik merosini chuqur anglaydigan, jahon haykaltaroshlik maktablari tajribasini tahlil qila oladigan hamda ularni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etishga qodir malakali mutaxassislar sifatida shakllanadilar.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda haykaltaroshlik san'ati muhim pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Milliy haykaltaroshlik merosini jahon san'ati tajribasi, xususan, Qadimgi Yunoniston va Italiya haykaltaroshlik maktablari tajribasi bilan uyg'un holda o'rganish talabalarning badiiy tafakkuri, estetik didi va kasbiy mahoratini rivojlantiradi. Mazkur yondashuv orqali bo'lajak o'qituvchilar milliy qadriyatlarni chuqur anglagan, jahon san'ati yutuqlarini puxta biladigan hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay oladigan yetuk mutaxassislar sifatida shakllanadilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, haykaltaroshlik san'atini milliy va jahon tajribasi bilan integratsiyalashgan holda o'qitish bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy, metodik, kommunikativ hamda madaniyatlararo kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois tasviriy san'at ta'limida haykaltaroshlikni tarixiy, milliy va jahon tajribasi bilan integratsiyalashgan holda o'qitish dolzarb metodik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ulomov S. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 224 b.
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006.
3. Panayeva M. Haykaltaroshlik. – Xorazm: Khwarezm Publication, 2026. – 156 b.
4. Honour H., Fleming J. A World History of Art. – 7th ed. – London: Laurence King Publishing, 2009. – 996 p.
5. Muminovna P. M. (2026). Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining haykaltaroshlik orqali kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar. Научный Фокус, 3(32), 53–56.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №7(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.